



**XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHINING  
QARORI**

2024-yil 13-sentabr

VI-112-103-11-153-K/24

Beshariq tumani

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qaroriga asosan, jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida, Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashi

**QAROR QILADI**

**1. Quyidagilar:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 1-fevraldan 4-aprelga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha Beshariq tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Z.Olimovning hisoboti ma‘lumot uchun qbul qilinsin.

**2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashining 2024-yil 13-fevral kungi VI-90-20-11-153-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, “Ochiq budjet” axborot portalida eng ko‘p ovoz olib, avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan takliflar “g‘olib” deb topilsin.**

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilli ro‘yxat” ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin. Bunda, jamoatchilik fikri asosida

---

2024-10-08 16:32:39